

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI XARAJATLARI VA ULARNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

*Abduhamidov Sherzodbek,
Narzullayev Asilbek,
Namozov Nurbek*

TDIU “Moliya fakulteti” MMT-94 guruh talabalari


Annotatsiya: sog'liqni saqlash sohasini mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish va rivojlantirish bo'yicha moliyaviy munosabatlarini takomillashtirish, mazkur jarayonni optimal tashkil etish sog'liqni saqlash xarajatlari, moliyalashtirish manbalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash xarajatlari, davlat byudjeti, moliyalashtirish manbalari, mahalliy byudjet daromad va xarajatlari.

Yurtimizda aholi turmush darajasini yanada yaxshilash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish borasida tom ma'noda yangilanish va rivojlanish jarayonlari kechmoqda. Bu, albatta sog'liqni saqlash tizimining shoshilinch tez tibbiy yordam xizmati faoliyatiga ham taalluqlidir. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan har bir ma'ruza va nutqlarida, uchrashuvlarda xalqimizni rozi qilish uchun, eng avvalo, sifatli tibbiy xizmatga bo'lgan talabni qondirish nihoyatda zarurligini kuyunchaklik bilan bot-bot ta'kidlanmoqda. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida matbuot anjumanini o'tkazildi. Anjuman, mazkur sohada so'nggi paytlarda olib borilayotgan islohotlar, xususan Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalariga qaratildi. Shoshilinch tibbiy yordam haqida so'z borganda biz, avvalo, kafolatlangan, sifatli va tezkor tibbiy yordamni tasavvur qilamiz. Bugun yurtimizda ushbu sohani rivojlantirish yo'lida belgilangan vazifalar va berilayotgan imtiyozlar, soha uchun ajratilayotgan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar tizim mutaxassislari olib borayotgan ilmiy izlanishlarning saviyasini yuksak darajada oshirish, shoshilinch holatlarda diagnostika va davolashning yangi istiqbolli usullarini ishlab chiqish, rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu esa tez tibbiy yordam xizmatining sifat va samaradorligini oshirish, aholining har bir murojaatiga amaliy yordam bilan javob qaytarish, eng muhim, xalqimizni ushbu tizim faoliyatidan rozi bo'lishiga erishishga xizmat qiladi.

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirishni asosan 3ta bazaviy modelga ajratish mumkin:

- Davlatdan moliyalashtirish modeli, bunda davlat byudjeti mablag'laridan moliyalashtirish asosiy o'rinni egallaydi. Bunga Buyuk Britaniya, Italiya, Kuba, Rossiya, O'zbekiston davlatlarini misol qilish mumkin.
- Tibbiy sug'urta modeli, bunda tadbirkorlar, mehnat qiluvchi fuqarolarning maqsadli badallari orqali moliyalashtirish asosiy o'rinni egallaydi. Bunga Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Kanada davlatlari misol bo'ladi.
- Xususiy moliyalashtirish modeli, bunda ixtiyoriy tibbiy sug'urta badallari xisobiga hamda pulli tibbiy xizmatlarni amalga oshirish orqali keladigan tushumlar orqali moliyalashtirish asosiy o'rinni egallaydi. AQSH, Janubiy Koreya davlatlari misol bo'la oladi.



1-rasm. Sog'liqni saqlash xarajatlari tasnifi¹

Sog'liqni saqlash byudjetida yuqori ulushni ish haqi xarajatlari, jumladan unga ajratmalar tashkil etadi. 2024 yilda ushbu maqsadlar uchun 26140,0 mlrd so'mni (joriy xarajatlarning 78,4%i miqdorida) ajratish rejalashtirilgan.

1-jadval.


Sog'liqni saqlash xarajatlari²

Xarajatlari	2024 (prognoz)
Jami	33 439,3
shu jumladan:	
ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar	26 164,0
davlat dasturlari va markazlashgan tadbirlar uchun ko'zda tutilgan mablag'lar	1 517,5
dori vositalari, tibbiyot buyumlari, vaksina va bakpreparatlar	3 759,9
oziq-ovqat xarajatlari	958,6
boshqa xarajatlar	1039,4

¹ Budjet P 24 uz.pdf (mf.uz) ma'lumot asosida

² Budjet P 24 uz.pdf (mf.uz) ma'lumot asosida

Ajratiladigan mablag‘lar hajmi bo‘yicha keyingi yo‘nalish – 3 759,0 mlrd so‘mni tashkil etuvchi dori-darmon vositalari, tibbiyot buyumlari, vaktsinalar va bakteriologik preparatlarga sarflanadigan xarajatlardir.



2-rasm. Davlat tibbiyot muassasalarida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish mohiyati

O‘zbekistonda sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirishda mablag‘larning YAIMga nisbatan ulushini oshirish nazarda tutilganligi davlat budgetidan tashqari xususiy manbalarning ham ulushini oshirishni taqozo qiladi, desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. E’tiborli jihatni aholining to‘g‘ridan to‘g‘ri to‘lovlari ulushini kamaytirishga qaratilgan maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilanishi insonlarning kasal bo‘lish xavfidan xadiksiramasliklarini o‘zida aks ettirib beradi. Ushbu tendensiyaning vujudga kelishi o‘z-o‘zidan sug‘urta mexanizmini rivojlantirishni taqozo etadi. Fikrimizcha, sug‘urta mexanizmining rivojlantirilishi insonlarning kasal bo‘lish riskidan xavotir olmasliklarini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishni tizimlashtirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu esa sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirishni tartibga solish va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishga imkon beruvchi qarorlarni qabul qilishga xizmat qiladi.

Bizningcha, tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda ijtimoiy siyosatni ta’milanishi davlat budgeti mablag‘lariga bog‘liqlik kasb etishini kuzatish mumkin. Bunda davlat budgeti mablag‘laridan aholining barcha, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan qatlamini qamrab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Fikrimizcha, sog‘lijni saqlash tizimini moliyalashtirishda majburiy tibbiy sug‘urta amaliyotining joriy etilishi statsionar tibbiy xizmatlarni ham davlat, ham xususiy tibbiyot muassasalarida olishga imkon beradi. Ushbu holatning joriy etilishi quyidagilarni shakllanishiga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz:

- davlat budgeti mablag‘laridan foydalanishda individual manzillilik ta’milanadi;
- aholining tibbiy xizmat uchun “cho‘ntak” xarajatlarini qisqartirishga yordam beradi;
- aholining tibbiy xizmatlarni olishda moliyaviy risklardan himoya qilishga imkon beradi va kasal bo‘lish xavotiri sezilarsiz ahamiyatga ega bo‘lishiga olib keladi.

Tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish manbasi bitta bo‘lishi natijasida davlat va xususiy tibbiyot muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat vujudga kelishiga imkon beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Health Organization (1999) World Health Report 1999, World Health Organization, Geneva.
2. Schultz, T. W. (1961). Investment in human capital. The American economic review, 51(1), –1-17.
3. Becker, G. S. (1964). Human capital: A theoretical and empirical analysis. University of Chicago Press.
4. Mushkin S.J. “Toward a Definition of Health Economics,” Public Health Reports, U. S. Dept. of Health, Educ. and Welfare, Sept. 1958, 73, 785-93.
5. Public funding of health spending. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/9343bbdd-en/index.html?itemId=/content/component/9343bbdd-en>
6. Raxmonov D.A. O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish. I.f.n. avtoreferati. – T., BMA. 2012-y. – 25 b.
7. Umurzakova M.N. Sog‘liqni saqlash tizimini davlat budjeti mablag‘lari bilan moliyalashtirish .muammolari//Iqtisod va moliya. – T., 2017. – №7. – B. 10-16